



ISSUES OF IMPROVING COMPETITION AMONG COMMERCIAL BANKS IN PROJECT FINANCING

Shakhnoza Tursunova

*Master's Student at the Banking and Finance Academy of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: commercial banks, assets, credit portfolios, credit policy, competitiveness, financial stability, risk management, overdue payments, project financing, financial products, credit rating, banking system, competition between banks, innovative financing, banking services, financial analysis, liquidity, confirmed debts, credit risk, financial stability of banks.

Abstract: In this article explores key issues related to improving competition in the process of project financing in commercial banks.

Received: 03.09.25

Accepted: 04.09.25

Published: 05.09.25

LOYIHAVIY MOLİYALASHTIRISHDA TIJORAT BANKLARIDA RAQOBATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Shaxnoza Tursunova

*O'zbekiston bank moliya akademiyasi magistranti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aktivlar, kredit portfollari, kredit siyosati, raqobatbardoshlik, moliyaviy barqarorlik, risk boshqaruvi, muddati o'tgan to'lovlar, loyihaviy moliyalashtirish, moliyaviy mahsulotlar, kredit reytingi, bank tizimi, banklar o'rtasidagi raqobat, innovatsion moliyalashtirish, bank xizmatlari, moliyaviy tahlil, likvidlik, tasdiqlangan qarzlilar, kredit xavfi, bankning moliyaviy barqarorligi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish jarayonida raqobatni takomillashtirishga doir muhim masalalar o'rganilgan.

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОНКУРЕНЦИИ СРЕДИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В ПРОЕКТНОМ ФИНАНСИРОВАНИИ***Шахноза Турсунова**Магистрант Академии банковского и финансового дела Узбекистана**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: коммерческие банки, активы, кредитные портфели, кредитная политика, конкурентоспособность, финансовая стабильность, управление рисками, просроченные платежи, проектное финансирование, финансовые продукты, кредитный рейтинг, банковская система, конкуренция между банками, инновационное финансирование, банковские услуги, финансовый анализ, ликвидность, утверждённые кредиты, кредитный риск, финансовая устойчивость банка.

Аннотация: В данной статье изучены важные вопросы совершенствования конкуренции в процессе проектного финансирования в коммерческих банках.

Bugungi kunda, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyalashuvi va global moliyaviy integratsiyaning kuchayishi bilan birga, tijorat banklarining faoliyatida ham yangi yondashuvlar, innovatsiyalar va samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, banklarning muvaffaqiyatli faoliyati faqat moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, innovatsion xizmatlar taqdim etish va mijozlarga yuqori sifatli xizmatlarni taklif etish orqali imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, banklar o'rtasida raqobatning kuchayishi, ularning innovatsiyalarni joriy etishdagi faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi va moliya bozorining rivojlanishi jarayonida tijorat banklarining o'zaro raqobati, xususan loyihaviy moliyalashtirish sohasidagi faoliyati, mamlakat iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, faqatgina moliyaviy xizmatlarning sifatini yaxshilash bilan cheklanmaydi, balki yangi investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa o'z navbatida, banklar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar va xizmatlar orqali davlatning global iqtisodiy tizimda tutgan o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Loyihaviy moliyalashtirishda tijorat banklarida raqobatni takomillashtirish, kreditlash tartibida yuzaga keluvchi riskli jarayonlarni baxolash va hamda kreditlash amaliyotining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chikishning ayrim jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan M.A.Passel, Yu.A.Gerasina, D.M.Noton, O.I.Lavrushin va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq etilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Z.Abdullaeva, G'.Q.Yaxshiboev, R.M.Yunusov,

B.S.Mamatov, G.O.Turdieva, M.S.Rustamov, I.Y.Kulliev, D.A.Saidov, O.K.Iminov, F.Xolmamatov va boshqalarning ilmiy ishlarida banklarning kreditlash amaliyotini rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror rivojlanayotgan bir davrda, tijorat banklarining roli ortib bormoqda. Banklar nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, balki iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish orqali milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, loyihaviy moliyalashtirish sohasida banklar o'rtasida raqobatning takomillashtirilishi bank tizimining samaradorligini oshirish, mijozlar uchun yanada qulay va moslashuvchan xizmatlarni yaratish, shuningdek, investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, O'zbekistondagi tijorat banklarida raqobatni takomillashtirish mexanizmini aniqlash va takomillashtirish zarurati mavjud.

Bank islohotlardan tizimidagi ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur barqaror makroiqtisodiy va qulay investitsion muhitni shakllantirish hisoblanadi. Banklarning iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini mustahkamlash bilan aholi va tadbirkorlik subyektlarining ishonchli hamkoriga aylanishga erishiladi. Shuningdek, xalqaro ekspertlar O'zbekiston kredit infratuzilmasini rivojlantirish sa'y-harakatlarini garchi boshqa MDH davlatlari bilan birga boshlagan bo'lsa-da, ayni damda ulardan anchayin ilgari ketganligini ta'kidlashgan.

Hozirgi kunda Yevropa Markaziy banki tomonidan banklarning kredit tarixini sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilayotgan bir paytda mamlakatimizda ushbu infratuzilmani yanada takomillashtirish ishlari boshlangani ijobiy holatdir. Aytish joiz, kredit axboroti almashinuvi tizimining joriy etilishi natijasida ham kredit tashkilotlari, ham potensial mijozlar uchun birdek manfaatli mexanizm yuzaga keldi.

Xususan, tizim bilan kredit tashkilotlarida qarzdorlar to'g'risida axborot olish, kredit tavakkalchiligini kamaytirish, kredit intizomini mustahkamlash imkoni tug'ildi. Qarzdorlarda esa kredit intizomini mustahkamlashga, qarz majburiyatlarini o'z vaqtida qaytarishga qiziqish ortdi, minimal talablar (imtiyozlar) asosida kredit olishga muvaffaq bo'lindi. Umuman, bank-moliya tizimi miqyosida esa, bank nazorati uchun haqqoniy va tezkor ma'lumot olish yo'lga qo'yildi. O'zbekistondagi tijorat banklarining loyihaviy moliyalashtirish faoliyati va raqobatbardoshlik tahlili.

**1-jadval. Tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari
(2025 yil 1 avgust holatiga)**

Bank nomi	Aktivlar (mlrd so'm)	Kreditlar (mlrd so'm)	Kapital (mlrd so'm)
Depozitlar (mlrd so'm)			
O'zmilliybank	140 591 (16 %)	105 910 (18 %)	19 126 (15 %) 45 811 (13 %)

Agrobank	96 822 (11 %)	74 990 (13 %)	13 742 (11 %)	25 923 (7 %)
O‘zsanoatqurilishbank	95 407 (11 %)	67 974 (12 %)	11 015 (9 %)	25 582 (7 %)
Asaka bank	59 119 (7 %)	39 708 (7 %)	8 065 (6 %)	18 656 (5 %)
Xalq banki	49 405 (6 %)	30 495 (5 %)	10 083 (8 %)	26 209 (7 %)
Kapital bank	51 678 (6 %)	35 381 (6 %)	5 899 (5 %)	38 767 (11 %)
Ipoteka-bank	50 843 (6 %)	35 429 (6 %)	6 849 (5 %)	25 470 (7 %)
Hamkorbank	31 919 (4 %)	21 189 (4 %)	6 121 (5 %)	12 789 (4 %)
Aloqa bank	28 318 (3 %)	16 467 (3 %)	3 710 (3 %)	14 758 (4 %)

Bozor yetakchiligi: O‘zmilliybank, Agrobank va O‘zsanoatqurilishbank loyihaviy moliyalashtirishda eng yirik portfollarni taqdim etmoqda, bu ularning raqobatdagi pozitsiyasini mustahkamlamoqda.

Shaxsiy banklarning kuchi: Xususiy banklardan Kapital bank va Hamkorbank nisbatan yuqori bozor ulushiga ega. Masalan, Kapital bankning depozitdagi ulushi 11 % bo‘lib, bu uning moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Sanoat va agrar sektor maqsadli moliyalashtirish: Agrobank aniq ixtisoslikka ega (qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan loyiha kreditlari), bu raqobatdagi raqobatsiz afzalliklarga asos bo‘ladi.

Ipoteka-bank o‘ziga xos yo‘nalishga ega va bu sohada raqobatbardosh bo‘lish imkoniyatini oshiradi.

Loyihaviy moliyalashtirish bozorida O‘zbekiston banklari orasida davlat banklari (O‘zmilliybank, Agrobank, O‘zsanoatqurilishbank) aniq yetakchilik qilmoqda. Shu bilan birga, xususiy banklar — Kapital bank va Hamkorbank — depozitlar hamda innovatsion xizmatlar orqali raqobatni kuchaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Bu balans bank tizimining barqarorligini va raqobat kuchini ta‘minlaydi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshiradi.

Shuni ham alohida ta‘kidlash o‘rinliki, tijorat banklari tomonidan 86,8 foizi ichki manbalar hisobidan ajratilgan kreditlarning moliyalashtirilgan, bu esa mamlakatimiz bank tizimining yetarli darajada ekanligidan va har qanday shakllangan resurs bazasiga ega omillarning salbiy ta‘siridan himoyalanganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, xorijiy moliya institutlaridan jalb qilinayotgan mablag‘lar, asosan infratuzilma obyektlarini kurish va dasturlari bo‘yicha uzoq muddatli rekonstruktsiya qilish loyihalarni yo‘naltirilayotganligi alohida ahamiyatlidir. Shu bilan birga respublikamizda banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib, ular tomonidan ajratilayotgan investitsion tarmoqlarini shakllantirish kreditlar ustuvor iqtisodiyotning ravishda sanoat modernizatsiya zamonaviy qilish, infratuzilmani rivojlantirish, xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish

hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi yo'naltirilmoqda. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishga tijorat banklarining investitsion kreditlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion xarajatlarini moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, <https://cbu.uz/uz/> 2025-yil 1-avgust holatiga.